

ISSN 2010-720X

ILIM HÁM JÁMIYET



FAN VA JAMIYAT

2021 (№1)

ISSN 2010-720X

2004-jildin mart ayidan boshlab shuğa basladı

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI JOQARI HÁM ORTA
ARNAWLÍ BILIMLENDIRIW MINISTRILIGI**



**ÁJINIYAZ ATINDAGI NOKIS MÁMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI**



ILIM hám JÁMIYET

Ilmiy-metodikaliq jurnal

**Seriya: Tábiyiy hám texnikaliq ilimler. Jámiyetlik hám ekonomikalıq ilimler.
Filologiya ilimleri**

**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
pedagogika instituti**

FAN va JAMIYAT

Ilmiy-uslubiy jurnal

Seriya: Tabiiy va texnika fanlari. Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar. Filologiya fanlari

**Нукусский государственный педагогический
институт имени Ажинияза**

НАУКА и ОБЩЕСТВО

Научно-методический журнал

**Серия: Естественно-технические науки. Социальные и экономические
науки. Филологические науки**

**Nukus State Pedagogical Institute
named after Ajiniyaz**

SCIENCE and SOCIETY

Scientific-methodical journal

**Series: Natural-technical sciences. Social and economic sciences.
Philological sciences**

№1

2021

Shólkemlestiriwshi: Ájiniyaz atındaǵı Nókis
mámleketlik pedagogikalıq institutı hám jurnal redakciyası jámaáti
Shólkemlestiriw komiteti baslıǵı: OTEMURATOV B. – NMPI rektori
Bas redaktor:
ALLAMBERGENOV K. - filologiya ilimleriniń doktori, professor

REDKOLLEGIYA AǴZALARÍ

f.i.d., prof. **Abdinazimov Sh.** (Nókis)
t.i.d., doc. **Abdullaeva Ya.** (Nókis)
t.i.d. (DSc), doc. **Bazarbaev R.** (Nókis)
f.i.d., prof. **Berdimuratova A.** (Nókis)
f.-m.i.d., doc. **Dawletmuratov B.** (Nókis)
f.i.d., prof. **Raqimjan Turisbek** (NurSultan)
f.i.d., prof. **Eskeeva M.** (Nur-Sultan)
f.-m.i.d., prof. **Ismaylov Q.** (Nókis)
f.i.d., prof. **Járimbetov Q.** (Nókis)
g.i.d., prof. **Jolibekov B.** (Nókis)
b.i.d., prof. **Jumanov M.** (Nókis)
b.i.d. (DSc), doc. **Jumamuratov M.** (Nókis)
f.-m.i.f.d. (PhD), doc. **Kalxanov P.** (Nókis)
f.-m.i.d. **Kamalov A.** (Nókis)
f.-m.i.d., prof. **Kudaybergenov K.** (Nókis)
tex.i.d., prof. **Qayıpbergenov B.** (Nókis)
tex.i.d., doc. **Qayıpbergenov A.** (Nókis)
t.i.d., doc. **Qochanov B.** (Nókis)

f.i.d., prof. **Quramboev K.** (Nókis)
f.i.d., prof. **Mamedov A.** (Ashxabad)
b.i.d. **Mambetullaeva S.** (Nókis)
b.i.d., prof. **Matchanov A.** (Nókis)
f.-m.i.d. (DSc), doc. **Otemuratov B.** (Nókis)
f.-m.i.k., doc. **Prenov B.** (Nókis)
f.i.d., prof. **Rahmonov N.** (Tashkent)
tex.i.d., prof. **Reymov A.** (Nókis)
t.i.d., doc. **Saribaev M.** (Nókis)
f.i.d., prof. **Suyunova N.** (Cherkas)
f.i.d., prof. **Sherbak S.** (S.Peterburg)
tex.i.d., doc. **Tagaev M.** (Nókis)
akademik, f.-m.i.d., prof. **Temirbekov N.**
(Alma-ata)
g.i.d., doc. **Turdimambetov I.** (Nókis)
f.i.d., prof. **Twxliev B.** (Tashkent)
f.-m.i.d., prof. **Utewliev N.** (Nókis)
f.-m.i.d., doc. **Yavidov B.** (Nókis)

Juwaplı redaktorlar:

f.i.k., doc. **E.Xojaniyazov** – ózbek tili boyınsha
PhD, doc. **G.Kidirbaeva** – rus hám inglis tilleri boyınsha
Q.Biysenbaev – qaraqalpaq tili boyınsha

D.Dogarova - juwaplı xatker
Z.Xodjekeeva - korrektor
N.Allamuratova - operator

Jurnal 1992-jıldan «Qaraqalpaqstan muǵallimi» atamasında shıǵarıla baslaǵan. 2004-jilda «Ilim hám jámiyet» atamasına ózgerilip, 01-022-sanlı gúwalıq penen Qaraqalpaqstan Respublikası Baspasóz hám xabar agentligi tárepinen dizimge alınǵan.

2020-jılı 07-avgustta Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administracyası janındaǵı xabar hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen qayta dizimge alınıp, 1098-sanlı gúwalıq berilgen.

«Ilim hám jámiyet» jurnalı Ózbekstan Respublikası Ministirler kabineti janındaǵı Joqarı Attestaciya Komissiyası kollegiyasınıń qararı menen tórende kórsetilgen pánler boyınsha ilim doktori dárejesin alıw ushın maqalalar járiyalanıwı tiyis bolǵan ilimiy basılımlar dizimine kirgizilgen:

- 01.00.00 – fizika-matematika ilimleri;
- 03.00.00 – biologiya ilimleri;
- 05.00.00 – texnika ilimleri;
- 07.00.00 – tariyx ilimleri;
- 10.00.00 – filologiya ilimleri;
- 11.00.00 – geografiya ilimleri;
- 13.00.00 – pedagogika ilimleri;
- 19.00.00 – psixologiya ilimleri.

лық поэзиясы жаңа белесте. -Алматы: «Ғылым», 1963. 151-б.

2. Исмаилов Е. Ақындар. -Алматы: «ҚМКӘБ», 1956. 32-б.

3. Максетов Қ.Қарақалпақ халқының көркем ауызеки дәретпелери. -Нөкис :-«Билим», 1996. 102-б.

4. Қоңыратбаев Ә. Қазақ әдебиетінің тарихы. -Алматы:-«Білім», 1994. 29-б.

5. Қарақалпақ фольклоры (көп томлық) V том. -Нөкис: «Қарақалпақстан», 1980. 44-б.

6. Қарақалпақ халық қосықлары, (Хрестоматия -1960-1990-жыллар) Жыйнаған хәм баспаға таярлаған: С.Баўатдинова. -Нөкис: «Қарақалпақстан», 2019. 11-13-б.

РЕЗЮМЕ

Мақолада қарақалпақ халқ кұшиқлари тарихий жараёнлари, жанрлари ва бадий шаклланиш хусусиятлари ўрганилиб халқ кұшиқларида импровизация аңғанасининг пайда бўлиши манбалари, шаклланиш босқишлари, ривожланиш тарихи сўз этилган.

РЕЗЮМЕ

В статье исследуются исторические процессы, жанры и особенности становления каракалпакских народных песен, истоки традиции импровизации в народных песнях, этапы становления, история развития.

SUMMARY

The article examines the historical processes, genres and features of the formation of Karakalpak folk songs, the origins of the tradition of improvisation in folk songs, the stages of formation, the history of development.

LIRIK IFODA SUBYEKTI VA POETIK TASVIR OBYEKTI UYG'UNLIGI

S.Matyakupov – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: lirika, dialog, monolog, lirik tasvir, dramatik tasvir, badiiy ifoda.

Ключевые слова: лирика, диалог, монолог, лирическое описание, драматическое описание, художественное сознание.

Key words: lyrics, dialogue, monologue, lyric description, dramatic description, literary mind.

Ruhiyat tasvirining namoyon boʻlishi sheʼriyatda ancha murakkab kechadi. Negaki, aksariyat oniy kechinma asosiga quriladigan lirik ifodada tahlil va talqin oʻzaro uygʻun kelishi lozim. Ayniqsa, sheʼriy asar dialog orqali ifoda qilinsa, bu jarayon yanada murakkablashadi. Maʼlumki, dialog asosan dramatik va nasriy asarlarda koʻp qoʻllaniladi. Bu haqida adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan bir qator tadqiqotlar, ilmiy maqolalar yaratilgan. Lekin sheʼriyatda dialog va uning badiiy talqini masalasi oʻzbek adabiyotida monografik tadqiqotga obyekt boʻlmagan. Bu muammo hozirgi kunda adabiyotshunosligimizda oʻrganilishi lozim boʻlgan masalalardan biridir.

Badiiy asarlarda qoʻllaniladigan dialoglarga nisbatan adabiyotshunosligimizda deyarli bir-biriga yaqin taʼriflar berilgan. Xususan, N.Hotamov va B.Sarimsoqovlarning «Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-oʻzbekcha lugʻati»da shunday deyiladi: «Dialog ikki yoki undan ortiq shaxs orasidagi uzluksiz nutq shakllaridan biri. Dramada dialog dramatik holatni rivojlantiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Lirikada asosan monolog yetakchilik qilsada, biroq ayrim shoirlar dialogni maxsus usul sifatida qoʻllab poetik gʻoyani ochishda katta muvaffaqiyatlarga erishganlar» [10:91-92].

D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheralievalar hammuallifligidagi «Adabiyotshunoslik lugʻati»da «Dialog (yun. Dialogos – gaplashish, suhbat) – 1) ikki yoki undan ortiq kishining nutqiy muloqoti, suhbat; 2) adabiy-badiiy matn komponenti, asardagi personajlarning nutqiy muloqoti berilgan oʻrinlar. Hozirgi zamon prozasi rivoya, tavsif va dialogdan tarkib topadi; zamonaviy epik asarlarda dialog salmogʻining ortishi kuzatiladiki, bunga turlararo sintezlashuv, badiiy adabiyotning boshqa sanʼatlar bilan oʻzaro aloqasi natijasi sifatida qarash mumkin...» [8:92], deyiladi.

Bundan koʻrinadiki, adabiy turlarning sintezlashuvi badiiy adabiyotning tarixiy taraqqiyoti mahsuli sifatida yangi adabiy shakllarning paydo boʻlishiga zamin hozirlaydi. Zero, dialog badiiy ijod nazariyasi va psixologiyasining eng muhim omili sanaladi. Badiiy asar qaysi tur va janrga oid boʻlmasin unda asosan ijodkorning olam va odam bilan muloqoti aks etadi.

XX asrning 90-yillarida, xususan, sheʼriyatimizdagi jiddiy evrilishlar natijasida adabiyotimizda modernistik yoʻnalishdagi sheʼrlarning yaratilishi kuchaya boshladi. Chuqur falsafiy fikr, dardchil tuygʻular sohibi Abduvali Qutbiddin ijodi bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Muayyan badiiy obyektini shoir oʻz maqsadiga xizmat qildirishda dialogik talqindan mohirona foydalanadi.

“Badiiy muloqotga kirishayotgan ijodkor representativ, ekspressiv va appelyativ maqsadlarni koʻzlarikan, asarning tashkillanishi (struktura) shu uchala maqsadning roʻyobga chiqishi uchun optimal imkoniyat yaratadigan boʻlishi lozim. Anglashiladiki, gap qurilishi bilan adabiy asar qurilishi orasida yuqoridagicha maqsadlardan kelib chiqadigan tipologik umumiylik boʻlishi tabiiy. Demak, adabiy asar strukturasi gap qurilishi model (konstruksiya)lariga tayangan holda tushunish va tushuntirish mumkin boʻladi [9:73], – deya taʼkidlaydi, professor D.Quronov.

Bu borada A.Qutbiddinning “Izohsiz lugʻat” dostonida oʻziga xos muloqotni kuzatish mumkin:

Xayri xoʻsh bobo!

Siz bilan choy ichgani keldim,

Hozir choy quyasisiz,

Non ushatasisiz...

...Indamaysiz...

Men boʻlsam zerikib ketaman,

Barmoqlarimni oʻynay boshlayman nogohon,

Boshingizni koʻtarasisiz,

Pichirlaysiz: – Yurakni koʻz etmajak makon,

Tushunmayman,

Talmovsirab yelkangizga qarayman.

Sandovuch boshini qimirlatar bir marom,

Yana mingʻirlayman: qush, qush... [1:6].

Sheʼrning har bir misrasida achchiq hayotiy xulosalar tasvirlangan. Shoir tasavvurida XX asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ruhiy-maʼnaviy jihatdan nosogʻlom, notabiiy muhitning naqadar ojiz va fojiali ekanligini unutmastikka daʼvat, ishora yangraydi. Yuqoridagi misralar tarix sahnasida qolib ketgan mashʼum, achchiq kunlarning yana qayta sodir boʻlmasligini taʼkidlaydi. Asarda yana shunday satrlarni uchratamiz:

Pichirlaysiz: – tilni ipdek eshib boʻlarmi,

Jonni boʻlurmi unga oʻtqazib,

Keyin sanab boʻlarmi jonni

Oxirgi kungacha uzmasdan?!

Talmovsirayman,

Siz boʻlsa kulasiz, kulasiz... [1. 6].

Maʼlumki, sheʼr shoir ruhiy-psixologik holati sintezidir.

Ijodkor idrokida vujudga kelgan tuygʻular toʻlqini lirik qahramon kechinmalarida maromiga yetkaziladi. Turli xil harakat va holatlar, soʻz – obraz – ruhiyat jipslashib, muallifning borliqqa ijodiy munosabatini ifodalaydi. Ayni paytda, tafakkurda sayqal topgan va rivojlantirilgan shaxsiy kechinma mohiyatan umumiylikka intilgan holda sinxronik koʻlamga ega boʻladi. Bu oʻrinda poetik til maʼno

shakllanishini muayyan tizimga solish va shoir ijodining badiiy o'ziga xosligini belgilab olish imkonini berish bilan birga davr lirikasining spesifik jihatlarini aniqlashga ham yordam beradi:

Men bo'lsam ovliqib kecha eshitganim:
– Chingizxon onasin qornidan
Bir parcha go'sht uzib tushgan...
Tag'in nimalardir...
Aytaveraman, aytaveraman,
Siz tag'in indamay o'tiraverasiz,
Ichim qizir, barmoqlarimni bukaman, ochaman.
Pichirlaysiz: – Odam –
Etga o'ralgan, et esa zahar [1:7].

“Muloqot jarayoni she'r mohiyatini mantiqan yakunlaydi. Monologning ichki ko'rinishi (bunda personajlar o'z-o'zi bilan ichdan gaplashadilar) epos va dramada ko'plab uchraydi. Ichki monologda qahramon qalbidagi yashirin o'ylarini, fikr-mulohazalarini kitobxon bilan baham ko'radi. Eposda bu kengroq, batafsilroq ifodalansa, dramada judayam keskin va dramatismga boy shaklda namoyon bo'ladi” [6:157] – deb yozadi, professor H.Umurov.

Odatda, ruhiy evrilish holatlari qahramonlarning e'tirofi, o'z tilidan ko'chgan iqrar va inkor shakllarida ko'proq uchraydi. Bu hol qahramonlarning fe'li-faoliyati orqali namoyon bo'lgan ma'naviy psixologiyani yoritish vositasida yuzaga chiqadi. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov qayd etganidek: “shoir e'tiqodi, uning borlig'i, suyanch tog'larini – inson. Olam va odam taqdiri haqida qayg'urish haqiqiy shoir qalbini junbushga keltirib turadigan darddir” [4:12]. Chunki shoirning anglagan tushunchalari, o'zligini teranroq tushunishga olib boradi.

Aslida san'at ifodasi va reallik darajasi muallif pozitsiyasining ikki bosqichi bo'lib, subyektiv ibtidoan obyektiv intihoga o'tish tizimi tahlil malakasini belgilaydi. Unda tavsif, ta'rif, muqoyasa hamda tanlov markaziy nuqtaga ko'chadi:

Qadim donishmandlar demishlar bundoq:
– Uch odamning biri Xizr erur, boq.
Men-ku ishonaman, Xizrdir biri,
Qolgan ikkovi kim? Bunisi jumboq! [2:76].

Abdulla Oripovning tushuncha mustaqilligi hamda g'oya muqobilligi asosiga qurilgan mazkur she'rida muallif va qahramon munosabati yaxlitlikda namoyon bo'ladi. Idrok kaliti – estetik baholash mezonini aynan ijodning hayot bilan uzviy aloqasini dalillaydi. Shoir odatiy qarashlardan badiiy haqiqat hosil qiladi: falsafa hamda mantiq hamkorligi hukm-xulosaning o'ziga xosligini ta'minlagan holda mifopoetik talqin inson ruhiy holati murakkabligini tasdiqlaydi.

She'rdagi “Qolgan ikkovi kim?” – o'zgacha yo'sinda berilgan mazkur savol zalvori o'ta munozarali. Yashirin mohiyatga ko'chgan ritorik munosabatda ifoda hamda tasvir bir-birini to'ldiradi. E'tiborli jihati, muloqot shaklida ham monologik kayfiyat, ham dialogik keskinlik aks etadi. Falsafiy mushohadaning tadrijiy takomili (“Bunisi jumboq!”) ta'sirchanlikni yanada oshiradi. Ifoda tugallanmaganligi esa munozara kitobxon qalbiga ko'chishiga yo'l ochadi. Kuchli ijodiy quvvatga asoslangan satrlar sezgi va dunyoqarash muvozanatini ko'rsatadi.

Odatda, so'zning ichki shakli va ong moddiy darajasi dialogik talqinga asos bo'ladi. Badiiy mazmuni belgilovchi omillar bo'lgan ohang va marom tig'izligi natijasida voqelik idroki yangilanadi, badiiy shartlilik esa qayta ijodiy tasavvurni shakllantiradi. Negaki, lirikada so'z va shakl uyg'unligi poetik yaxlitlik hosil qiladi. Tushuncha va timsol ziddiyati esa estetik qiymatni oshiradi. Ta'kidlash joizki, nazmda monolog va dialog qarishiq holda nutqning shaklda ifodalanishining o'ziga xos tarzini belgilagan holda uchinchi shaxs – “Men” tasvir ruhiyati daxlsizligini ta'minlaydi.

Ulug'bek Hamdamning “Eski dunyo va yangi men”

she'riy to'plamidan joy olgan bir qator she'rlarida an'anaviy talqinlardan farqli ravishda hayot va insonni yangicha idroq etish va uni tasvirlashda ham yangicha talqin madaniyati yaqqol seziladi. Xususan, shoirning “Yurakka es” she'rida badiiy tafakkurning o'ziga xos talqinini kuzatamiz.

Tug'ilish – hijrat,
O'lim esa Vatanga qaytish.
– Unda muhabbat-chi, muhabbat?
– Muhabbat ana o'sha Vatandan esgan sabo!
Sabo, sabo!
Yuragingma es! [5:331].

“Modernizmga xos umumiy xususiyatlardan biri shuki, u obyektiv voqelikning tasviri o'rniga uning ijodkor tasavvuridagi badiiy modelini yaratishni maqsad qiladi. Ya'ni bu o'rinda voqelikni aks ettirish emas, ijodkorning o'z-o'zini ifodalashi ustuvor ahamiyat kasb etadi” [7:12]. Shunday ekan, U.Hamdamning mazkur she'rida ham odatda go'zallik sifatida talqin qilinmaydigan so'z (O'lim) – inson umri poyonini go'zal bir ne'mat (“Vatanga qaytish”) sifatida aks ettiradi. Xuddi shu narsa “Tug'ilish – hijrat” ekanligini badiiy tasdiqlaydi. Lirik qahramonning saboni o'z yuragiga esishini istashi esa insonning bu olamga pok holda “Hijrat” qilishi va yana o'sha “Vatanga” chin sevimli banda bo'lib qaytishni xohlashi bilan izohlanadi. Bu borada G.Oripova ta'kidlaganidek, “Tuyg'u va kechinmalar ifodasidan ko'ra salmoqdor fikr aytish va shu orqali davrning murakkab masalalari talqini bu davr she'riyati uchun yetakchi xususiyatga aylandi. Kechinmalarning fikr ifodasiga xizmat ettirilganligi, o'z navbatida, mavzular talqinida kutilmagan ifoda usullarini yuzaga keltirdi” [3:25].

Shoirning “Eski dunyo va yangi men” to'plamiga kirgan “Ko'zgu qarshisidagi she'r”i dialogik talqinning o'ziga xos hosilasi sanaladi. Mazkur she'rdagi lirik “Men”larning o'zaro muloqotini anglash mumkin.

Hammasi jonga tegdi,
Jonga tegdi hammasi.
Seni sog'indim cheksiz,
Cheksiz sog'indim seni! [4:317].

E'tibor qilsak, she'rning toq satrlarida lirik qahramon tilidan ko'zguna aytilayotgan mulohazalar juft misralarda mumtoz adabiyotimizdagi tardu aks san'ati qo'llanilgan holda qahramonga javob tarzida aks sado beradi. Shuningdek, ko'zgudagi aks ikkinchi lirik “men” tarzida voqelikka munosabat bildiradi. Bu yerda lirik qahramon va “ikkinchi men”ning samimiy va kutilmagan muloqoti har bir o'quvchini chuqur o'yg'a solishi tabiiy. Negaki, har qanday badiiy asar ham aniq bir hayot haqiqatini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Bunda ijodkorning iste'dodi va mahorati eng muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur she'rdagi jarayonning kechishi shakl va mazmun mutanosibligini ta'minlaydi. Shuningdek, tasvirning mantiqiyliigi va g'oyaviy-estetik yuksakligi ruhiy tahlilning asosli ekanligi bilan ahamiyat kasb etadi. She'rdagi lirik qahramonning ko'zguda o'z aksini bilan qilgan muloqotida inson o'z umrining turli davrlari bilan xayolan munozarada bo'lishi hamda umr mohiyatini anglashi aks ettiriladi.

Bola edim qaridim,
Qaridim, edim bola.
Mana endi qaytyapman,
Qaytyapman endi, mana:
“Bolaligim – keksalik”,
Keksalik – bolaligim... [5: 317].

Modernistik she'rlardagi bir xususiyatga alohida e'tibor qaratis muhimki, ularda biz odatda o'rganib qolgan badiiy talqinlardan chekiniladi. Xususan, A.Qutbiddin, U.Hamdam she'rlarida tasdiq orqali inkor, inkor orqali esa tasdiq ifodalanganini anglash mumkin.

Ma'lumki, she'r – tuyg'uning voqe bo'lishi bilan birga shoir va o'quvchi ko'ngil kechinmalari, manfaat-ehtiyojlari, hayotiy kuzatishlari – tajribalari, orzu-istaklari hamda

anglangan va anglanmagan mohiyat rishtalarini birlashtirib turadigan ilohiy hilqat. She'r – shoir qalbidan inson ruhiyatiga ko'chadigan o'ziga xos dard, undan sizib chiqayotgan ohang umidlarni uyg'otadi, hissiy idrokka dalda beradi. Shu ma'noda, u kitobxonni yupatadi, junbushga keltiradi va hayajonlantiradi. Hozirgi kunda nazm ko'ngil sari yuzlangan ekan, shoirlik qismati mavjudlik jumbog'i qadar sirli mohiyat kasb etadi. O'zgarib hamda tobora teranlashib borayotgan lirik ifoda shoir shaxsiyati va o'quvchi ruhiyatini ham o'zaro aloqa (muloqot)ga kiritadi.

Ta'kidlash kerakki, lirik ifoda subyekti va tasvir obyektini bir-birini taqozolaydigan kategoriyalardir. Ijodkor pozitsiyasining bevosita hamda bilvosita ta'siri munosabatni tavsiflaydi. Tasavvur jarayonida she'riy qahramon shaxsiyati muallif dunyoqarashi bilan to'qnashadi hamda dialogik ifoda vositasi sifatida harakatdagi badiiy voqelikni yuzaga keltiradi. Doimiy o'zgaruvchan ma'no hodisasi aslida g'oyaviy-estetik mohiyatni asoslaydi. Unda maqsad va vazifa badiiy nutqning o'ziga xosligini tayin etgan holda muloqot shakli matn darajasini belgilaydi.

Adabiyotlar

1. Абдували Қутбиддин. Изоҳсиз луғат (Достон). –Т.: // “Шарқ юлдузи”, 1990. №10.
2. Орипов А. Адолат кўзгуси. – Т.: “Адолат”, 2005.
3. Орипова Г. Муस्ताқиллик даври ўзбек шеърятининг ғоявий-эстетик ва бадий хусусиятлари: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Фарғона: 2019.
4. Саримсоқов Б. Муҳаббатга фидо шеърят. // “Ўзбек тили ва адабиёти”. 1990. №2.
5. Улуғбек Ҳамдам. Эски дунё ва янги мен. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2018.
6. Умунов Х. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2004.
7. Холова М. Ўзбек модерн шеърятини поэтикаси: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд: 2018.
8. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010.
9. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Т.: “Шарқ”, 2004.
10. Ҳатамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Т.: “Ўқитувчи”, 1979.

REZYUME

Maqolada she'riyatda dialogik tasvir va uning janriy-kompozitsion yaxlitlashuvdagi o'rni, shuningdek, lirikaning o'ziga xos xususiyatlari hamda ijodkor badiiy mahorati masalalari ilmiy-nazariy tadqiq etiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье исследуется роль диалогической образности в поэзии и её роль в жанрово-композиционной интеграции, а также особенности лирической поэзии и творческого художественного мастерства.

SUMMARY

The article studies the role of dialogical imagery in poetry and its role in genre-compositional integration, as well as the features of lyric poetry and creative artistic skill.

ИСТОРИЧЕСКАЯ РЕАЛЬНОСТЬ И СОЧЕТАНИЕ ПАФОСА В ЖАНРЕ ТЕТРАЛОГИЯ

З.Яхшиева – самостоятельный соискатель

ТУИТ Каршинский филиал

Таянч сўзлар: пафос, тетралогия, роман шакли, сулолалар, эпик роман.

Ключевые слова: пафос, тетралогия, форма романа, династии, роман-эпопея.

Key words: pathos, tetralogy, novel form, dynasties, epic novel.

Когда речь идет об этом «..... сбор богатого материала в создании исторического романа также тяжёлый труд, но сортировка, выбор, ограничение собранного материала, его художественная обработка – это большое искусство» [1]. В основе фактических материалов писатель воссоздает уникальную стратегическую концепцию династии Темуридов, период, среда, жизнь общества, эволюционный рост, что открывает путь для расширения существующих представлений, восприятия «формы романа» [2]. Так как по выражению В.Г.Белинского «рассказать, что произошло – это ещё не история». В частности, перед писателем стоят очень ответственные задачи, связанные о великом и мыслящем человеке. Тетралогия «Великая власть» является своеобразной формой исторической эпопеи в новой узбекской литературе. Даже при названии произведения писатель обращается к символическому обозрению. Художественная концепция как величественное сооружение великого власти – можно смотреть как высшая цель, обозначающая имя четырех детей. Итак, «наблюдение за мнением великих лиц -очень интересное занятие» (А.С.Пушкин).

«Пафос играет очень важную роль в гегелевской эстетике, которая интерпретируется как основа искусства, основа «царства искусств»».

Согласно Гегелю, Пафос - это объективное существование, являющееся сущностью человека, мощная сила, которая движет душой, и художник стремится выразить это в своей работе, то есть выражение конкретного Пафоса является мотивом творения. Исходя из этого, Гегель называет мотивы,

вдохновение и творчество «семьей, родиной, государством, церковью, честью, дружбой, гордостью, честью, любовью» [3].

Действительно, основной мотив тетралогии - описать основные моменты Амира Темура и его королевства. Не секрет, что его глубокие размышления о сыновьях, дочерях, женах, родственниках, командирах и религиозных лидерах более ярко отражают его «энтузиазм». Систематический «лиро-романтический» опыт (борьба добра и зла) консолидируется во всей работе художественных намерений, и, в-четвертых, он стремится поместить места времени и пространства в литературную хронологию. Художественные идеи в каждой книге тетралогии и пафосе, который её произвел, были невероятно вдохновляющими для писателя. Книга содержит мотивы, такие как сны, письма, монологи и дебаты, каждый из которых обеспечивает основу для достижения определенной цели и появления нового творческого замысла.

Говоря о мотиве дебатов, Амир Тимур и его специальные охранники, советники и философские взгляды духовенства, которые помогают в делах государства, исходили из сердца писателя:

«Путь королевства должен быть правильным! Это правда? Сказал внезапно Сахибкиран. «Но разве у тех, кто идёт по правильному пути, тоже правильное сердце?» Человек похож на дерево в пустыне, его сердце - это лист на этом дереве, оно мгновенно поворачивается налево и мгновенно направо ...Работаешь ради королевства, нации...Но работающий

MAZMUNÍ

TÁBIYIY HÁM TEXNIKALÍQ ILIMLER

Fizika. Matematika. Texnika

Алланазарова Т.Ж. Интегрирование модифицированного уравнения кортевега-де фриза с нагруженным членом и источником в виде суммы	3
Байтураев А.М., Аслонов Ж.О. Функциянинг сатх чизиклари ва градиент вектор майдонлар.....	5
Валиев М.Ш., Махкамов А.Х. Причины возникновения нарушений безопасности движения поездов на АО «Узбекистан темир йуллари»	8
Jalelov M.A., Otarbaev A.E., Jaksimuratov I.J. Gaz nizamlarin gazli termometr járdeminde úyreniw	10
Jalekeshov A.S., Yavidov B.Ya. An influence of uniaxial strain (pressure) on the temperature of the bose-einstein condensation of intersite bipolarons: possible implementation for $RBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ cuprates	12
Сапарниязова З.М., Исмаилов К.А., Исмаилов Т.Б., Алланиязова Б.С. Технология формирования кластеров атомов никеля в решетке кремния	16
Тошпўлатова Д. Гетероструктурали куёш батареяси фотоэлементининг фойдали иш коэффициентини	18
Ekologiya. Biologiya	
Kushakov A.J., Yuldashov M.K. Soil-reclamation characteristics of irrigated landsof zarafshan basin	20

JÁMIYETLIK HÁM EKONOMIKALÍQ ILIMLER

Filosofiya

Бердимуратова А.К. Экологиялык кризистин кескинлесиўининг ҳазирги басқышында «тәбият-жәмиет» системасын изертлеўдин тийкаргы методологиялык усуллары	23
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----

Tariyx

Есназарова З., Алеуов З. Ғарезсизлик жылларында Нөкис қаласының тарийхын үйрениўдин методологиялык тийкарлары	25
Каипназаров А.Ш. Қорақалпоғистоннинг экологик хавфсизлигини таъминлаш масалалари	27
Sagindikov B. Qaraqalpaqstanda mádeniy-agartiwshılıq jumislarinin rawajlanıwında milliy ziyalılar xızmeti (1920-30-j)	29
Усенов Ж., Дабылов А. Қарақалпақлардың тарийхый мөкан хэм заманда пайда болыўы хэм қәлипlesiўи	31

Ruwxylıq tiykarları. Huqıqtanw

Аллабаев Р. Жанр ранг-баранглиги театрнинг жамият ҳаётига маънавий – маърифий таъсирини ошириш омили сифатида	32
Балтаниязов С.А. Уроки с начинающими вокалистами	34
Ишаев Ж.Э. “Бисмиллаҳ” тафсири	35
Юсупов Қ.Б. Театр – мөнаўий дуньямызды тәрбияләу қуралы сыпатында	37

TIL BİLİMİ HÁM ÁDEBIYATTANÍW

Til bilimi

Эрназарова М.С. Лисоний ҳодисаларга прагматингвистик ва лингвопрагматик ёндашув ҳақида	39
Ходжалепесова И.М. Лексемы цветообозначения символики цвета в паремииологии английского, узбекского и каракалпакского языков	41
Худайназаров И. Тилда гендер хусусиятларнинг фарқлари ҳақида	43
Қазымбетова З.М. Ж.Избасқанов шығармаларында тырнақшаның қолланылуўы	46
Қадилов Қ.А., Аминова С. Ўзбек тили морфологиясининг шаклланишининг дастлабки босқичлари хусусида	48
Кеулимжаева У.К. Қарақалпақ тилиндеги соматикалык фразеологизмлердин мәнилери ҳаққында	49
Қошанова Г.К. Ҳазирги карақалпақ тилиндеги юридикалык терминлердин шығысы бойынша түрлери	51
Қошанов К.М., Қошанов Ш.Ж. Об увеличении количества заимствований в современном каракалпакском языке	52
Қурбаниязов Д. Фразеологизмлердин газета темалары ретинде қолланыўы	53
Нажимов А.Ш. Жәмийетлик-сиясий лексиканың аффиксация усылы менен жасалыўы	55
Наубетуллаева Э. Тил билиминде жумбаклардың лингвофольклористикалык бағдарда изертлениўи	57
Насруллаева Г. Илмий матнларда баъзи антропоморфик метафораларнинг социолингвистик таҳлили	58
Насруллаева Г. Метафораларнинг вазифасига кўра турлари	60
Norquziyev J.Sh. Ma'naviyatni ifodalovchi ayrim terminlarning leksikografik talqini	62
Orazimbetov A.Q., Uzaqbaeva N. Qaraqalpaq tilindegi bolımlı-bolımsızlıqtın lingvistikalıq tábiyatı	64
Пардаева М.Х. Абдулла Қодирий ҳажвий асарларида қўлланилган айрим морфологик бирликлар ва грамматик шаклдаги ўзгаришлар	65
Равшанова Р.Х. Мурожатнинг институционал ва спонтан дискурса функционал типологияси	68
Рахимова С.Ж. Фразеологик полисемия шаклланишининг лисоний асослари	69
Утепбергенов А.Қ., Қошанов Ш.Ж. Спорт тараўындағы шет тил өзлестирмелерин дурыс пайдаланыў ҳаққында	71
Зайрова Қ. Қарақалпақ тилинде ўстки кийимди билдиретуғын атамалардың лингвистикалык анализи	72

Ádebiyattanıw

Алдашева Ш.Ж. Адабиётларнинг ўзаро алоқадорлиги ва бир-бирига таъсири	75
Алламбергенов К., Аллаамбергенов Х. Назар Эшонқулнинг «Гўр ўғли ёхуд хаёт суви» романи бадиий талқини	77
Алламбергенов К. Зульфия – муқаддес Ўатан туйғысы жыршысы	79
Аметова У.К. Муҳаммаднинг Нишотийнинг “Хусн-у дил” достони ва кубравийлик таълимотидаги “ўн усул” ҳамда ранглар талқини	81
Амирқулова З.М. Тарихий ҳикояда сюжет такомилли	82
Атаниязова М. Диний-тасаввуфий адабиёт ва олим шарафиддинов қарашлари	85
Аянов С.Б., Эгамқулова Г.М. Қарақалпақ жыраўшылық өнери хэм мектеби: дөстан дөреғиўшилиқ дөстүрлери, сағалары, хазирги жағдайы, келешек тәғдирининг әхмийетли мәселелери	87
Баўатдинова С. Поэзияға өзек болған «Халық сөзлери»	89
Бекчанова С.Б. Ўзбек ва қорақалпоқ халқ нақлларининг қиёсий таҳлили («Биринчи бало» ва «Бир бәлеси болмаса, шүдигарда балық не жесин!» нақллари мисолида)	91
Бердимуратов Ж. Қарақалпақ фольклорында лап жанрын үйрениўдин әхмийетли мәселелери	93
Ибрагимова Р.И. Истиклолдан қуч олған күнгил	95
Jaqsılıqova A.S. J.Aytmurzaev – qaraqalpaq satiralıq prozasınıń baslawshılarınıń biri sipatında	96
Жумаева С. Эпик аңьаналар талқинида иждодий синтез муаммолари	98
Жўраев М. Космогоник миф сюжетининг эпик талқиниға доир	100
Қазақбаев С., Бийсенбаев Қ. Қарақалпақ балалар әдебиятының раўажланыўына дунья балалар әдебиятының тәсири	104
Қурамбоев К. Туркман ва қорақалпоқ адабиёттида Навоий аңьаналари	105
Мамбетов Ж.Қ. «Жөханша» дөстанының жазып алыныўы хэм изертлениўи мәселелери	108
Мамбетов Ж.Қ. «Жөханша» дөстанының Қурбанбай жыраў репертуарында жырланыўы	110
Матимов Қ. Халық қосықларында импровизация дөстүри	113
Matyakupov S. Lirik ifoda subyekti va poetik tasvir obyektı uyg'unligi	115
Яхшиева З. Историческая реальность и сочетание пафоса в жанре тетралогия	117